Azizov Solijon Uchmas o‘g‘li (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD); solijonazizov1@gmail.com)

KRIMINAL BADIIY DISKURSDA “JINOYAT” VA “ADOLAT” KONSEPTOSFERALARINING LINGVOPRAGMATIK TALQINI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kriminal badiiy diskursda “jinoyat” va “adolat” konseptosferalarining lingvopragmatik talqini o‘rganiladi. Tadqiqotning dolzarbligi badiiy matnda ijtimoiy-huquqiy tushunchalarning til orqali ifodalanishini aniqlash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqotda diskurs va kontekstual tahlil usullari asosida Tohir Malik hamda Agata Kristi asarlarida jinoyat va adolatni ifodalovchi birliklar tahlil qilindi. Natijada jinoyat konfliktni yuzaga keltiruvchi, adolat esa uni yakunlovchi konsept sifatida namoyon bo‘lishi aniqlanib, tadqiqot kriminal badiiy diskursni lingvopragmatik jihatdan o‘rganishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kriminal badiiy diskurs, “jinoyat” konsepti, “adolat” konsepti, konseptosfera, lingvopragmatika, diskurs tahlili, semantik maydon, badiiy matn tahlili.*

Азизов Солижон Учмас угли (Старший преподаватель Узбекского государственного университета мировых языков, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам; solijonazizov1@gmail.com)

ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТОСФЕР «ПРЕСТУПЛЕНИЕ» И «СПРАВЕДЛИВОСТЬ» В КРИМИНАЛЬНОМ ХУДОЖЕСТВЕННОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *В данной статье рассматривается лингвопрагматическая интерпретация концептосфер «преступление» и «справедливость» в криминальном художественном дискурсе. Актуальность исследования определяется необходимостью выявления языкового выражения социально-правовых понятий в художественном тексте. На основе дискурсивного и контекстуального анализа проанализированы языковые единицы, выражающие преступление и справедливость, в произведениях Тахира Малика и Агаты Кристи. В результате установлено, что преступление выступает как концепт, порождающий конфликт, тогда как справедливость является концептом, завершающим его, что способствует лингвопрагматическому изучению криминального художественного дискурса.*

Ключевые слова: *криминальный художественный дискурс, концепт «преступление», концепт «справедливость», концептосфера, лингвопрагматика, дискурсивный анализ, семантическое поле, анализ художественного текста.*

Azizov Solijon Uchmas ogli (Senior Lecturer, Uzbekistan State World Languages University; Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences; solijonazizov1@gmail.com)

LINGUO-PRAGMATIC INTERPRETATION OF THE CONCEPTOSPHERES OF “CRIME” AND “JUSTICE” IN CRIMINAL FICTION DISCOURSE

Annotation. *This article examines the linguo-pragmatic interpretation of the conceptospheres of “crime” and “justice” in criminal fiction discourse. The relevance of the research is determined by the need to identify the linguistic representation of socio-legal concepts in literary texts. Based on discourse and contextual analysis methods, the study analyzes the linguistic units expressing crime and justice in the works of Tohir Malik and Agatha Christie. The results show that crime functions as a concept generating conflict, while justice appears as a concept that resolves it, and the research contributes to the linguo-pragmatic study of criminal fiction discourse.*

Key words: *criminal fiction discourse, concept of “crime”, concept of “justice”, conceptosphere, linguopragmatics, discourse analysis, semantic field, literary text analysis.*

Kirish (Introduction). Kriminal yo‘nalishdagi badiiy asarlar til orqali ijtimoiy tartib, qonun, javobgarlik va axloqiy baholash kabi kategoriyalarning qanday ifodalanishini kuzatish imkonini beradigan muhim diskurs turini tashkil etadi. Bunday matnlarda voqealar rivoji odatda jinoyat sodir etilishi, uning ochilishi va yakunda muayyan shaklda adolatning qaror topishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli “jinoyat” va “adolat” tushunchalari kriminal badiiy diskursning semantik markazini tashkil etuvchi asosiy konseptual birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Zamonaviy diskurs tadqiqotlarida badiiy matn mazmuni faqat sujet orqali emas, balki baholash, nuqtayi nazar va kommunikativ strategiyalar orqali shakllanishi ta’kidlanadi. Nemis tadqiqotchisi M.Fludernik narrativ diskursni inson tajribasini talqin qilishga xizmat qiladigan kognitiv model sifatida izohlaydi va badiiy matnda voqea baholanishi til birliklari orqali yuzaga chiqishini ko‘rsatadi [3]. Bu yondashuv kriminal asarlarda jinoyat va adolatning turli qahramonlar nutqida turlicha talqin qilinishini lingvistik jihatdan tahlil qilish imkonini beradi.

Pragmatik lingvistika doirasida olib borilgan ishlarda ma’no nutq vaziyati bilan bog‘liq holda shakl-

lanishi qayd etiladi. Britaniyalik olim Y.Xuang pragmatik ma'no gapning grammatik tuzilishidan tashqarida, muallif maqsadi va kontekst ta'sirida yuzaga kelishini ta'kidlaydi [5]. Shu jihatdan, kriminal badiiy diskursda jinoyat, ko'pincha, qonuniy baho bilan emas, balki qahramonning pozitsiyasi, ijtimoiy muhit yoki muallifning ideologik qarashlari orqali talqin qilinadi.

Hozirgi lingvokognitiv tadqiqotlarda konseptlar o'zaro bog'langan semantik maydon shaklida o'rganilmoqda. Italiyalik olim E.Semino badiiy diskursda konseptual tuzilmalar metafora, baholash va narrativ strategiyalar orqali namoyon bo'lishini qayd etadi [7]. Bu holat kriminal asarlarda "jinoyat" va "adolat" tushunchalarining qarama-qarshi, lekin bir-birini to'ldiruvchi konseptosfera sifatida shakllanishini ko'rsatadi.

Mazkur maqolada kriminal badiiy diskurs doirasida "jinoyat" va "adolat" konseptosferasining lingvopragmatik talqini o'rganilib, ushbu konseptlarning matn ichida qanday nutqiy vositalar orqali ifodalanishi, baholanishi hamda kommunikativ vazifa bajarishi tahlil qilinadi. Tadqiqot kriminal syujetli badiiy matnlarda konseptlarning semantik va pragmatik funksiyalarini aniqlashga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature Review). Narrativ diskursni lingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilgan zamonaviy tadqiqotchilardan biri D.Xerman hisoblanadi. U narrativni inson tajribasini tuzilmaga soluvchi kognitiv model sifatida izohlaydi va matnda voqealar qanday talqin qilinishi til vositalari orqali belgilanadi, deb ta'kidlaydi. D.Xermanning fikricha, badiiy diskursda konflikt mavjud bo'lgan joyda baholash kategoriyalari ham shakllanadi [4]. Kriminal asarlarda aynan jinoyat sodir bo'lishi konfliktni yuzaga keltiradi, adolat esa ushbu konfliktning semantik yechimi sifatida talqin qilinadi. Bu qarash "jinoyat" va "adolat" konseptlarini qarama-qarshi, lekin yagona semantik tizimga kiruvchi birliklar sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi.

Badiiy diskursning pragmatik xususiyatlarini tadqiq qilgan olimlardan biri P.Simpson bo'lib, u stilistika va diskurs tahlilini birlashtirgan holda matnda muallif pozitsiyasi qanday ifodalanishini ko'rsatadi. P. Simpsonning ta'kidlashicha, badiiy matnda baholash, ko'pincha, grammatik shakl orqali emas, balki tanlangan leksika, nutq subyekti va tasvir burchagi orqali yuzaga chiqadi [8]. Kriminal badiiy diskursda jinoyatni tasvirlashda ishlatilgan so'zlar, epitetlar yoki nutq ohangi o'quvchining voqeaga munosabatini shakllantiradi, adolat esa, ko'pincha, yakuniy baholash kategoriyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy pragmalingvistika vakillaridan biri M.A.Loxer va A.X.Yuker nutq mazmunini tushunishda kontekst, ishtirokchilar o'rtasidagi munosabat va kommunikativ maqsad hal qiluvchi rol o'ynashini qayd etadi. Uning fikricha, bir xil til birliklari turli vaziyatda turlicha pragmatik ma'no kasb etishi mumkin [6]. Ushbu yondashuv kriminal diskurs uchun, ayniqsa, muhim, chunki jinoyat har doim ham mutlaq salbiy hodisa sifatida talqin qilinmaydi; ayrim hollarda, u muallif yoki qahramon nuqtayi nazaridan oqlanishi yoki zarurat sifatida ko'rsatilishi mumkin. Demak, "jinoyat" va "adolat" konseptlarini o'rganishda pragmatik omilni hisobga olish zarur.,

Lingvokulturologik tadqiqotlarda konseptlar milliy madaniyat bilan bog'liq holda talqin qilinadi. A. Vejbitskaya til birliklari ortida turuvchi ma'no universal emas, balki madaniy tajribaga asoslanganini ta'kidlaydi [9]. Shu sababli turli adabiy an'analarda "adolat" tushunchasining mazmuni ham bir xil bo'lmaydi. Ba'zi asarlarda adolat qonun bilan bog'lansa, boshqalarida u axloqiy qasos, ijtimoiy tenglik yoki shaxsiy vijdon bilan izohlanadi. Kriminal badiiy diskursni lingvopragmatik tahlil qilishda aynan shu madaniy farqlar konseptosfera tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Korpus lingvistikasi va diskurs tadqiqotlarini birlashtirgan ishlarda ham badiiy matnda konseptual maydonlarni aniqlash mumkinligi ko'rsatiladi. D.Bayber matnni tizimli tahlil qilish orqali muayyan diskurs turida takrorlanadigan leksik va grammatik modellarning mavjudligini ta'kidlaydi [1]. Kriminal asarlar korpusini o'rganish shuni ko'rsatadiki, jinoyat bilan bog'liq birliklar, ko'pincha, xavf, buzilish, ayb, jazolash kabi semantik guruhlar bilan birga keladi, adolat esa tartib, tiklanish, hukm, haqiqat kabi birliklar bilan ifodalanadi. Bu holat jinoyat va adolatning yagona konseptosfera doirasida qarama-qarshi qutblar sifatida shakllanishini tasdiqlaydi.

So'nggi tadqiqotlarda kriminal diskurs alohida kommunikativ model sifatida ham ko'rib chiqilmoqda. M.Kultxard, A.Jonson va D.Rayt huquqiy va kriminal matnlarni tahlil qilib, unda ayblash, himoya qilish, isbotlash va hukm chiqarish kabi nutqiy strategiyalar mavjudligini ko'rsatishadi [2]. Badiiy kriminal asarlar ham aynan shu strategiyalarga tayangan holda quriladi, faqat ular badiiy shaklda ifodalanadi. Shu sababli "jinoyat" va "adolat" konseptosferalarini lingvopragmatik nuqtayi nazardan o'rganish kriminal badiiy diskursning ichki tuzilishini ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot kriminal badiiy diskursda "jinoyat" va "adola"t konseptosferalarining lingvopragmatik xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot davomida diskurs tahlili, semantik guruhlash, kontekstual tahlil hamda interpretativ yondashuv usullaridan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida kriminal syujet asosida qurilgan badiiy matnlar tanlab olinib, ularda jinoyat sodir bo'lishi, tergov jarayoni, ayblash, hukm chiqarish va adolatning tiklanishi bilan bog'liq

nutq birliklari o‘rganildi. Tahlil davomida jinoyat bilan bog‘liq leksik birliklar hamda adolatni ifodalovchi birliklar alohida semantik maydonlarga ajratilib, ularning matn ichidagi funksiyasi, baholash yuklamasi va nutqiy vazifasi aniqlab borildi. Shuningdek, konseptlarning talqini muallif izohi, qahramon nutqi va umumiy diskurs yo‘nalishi bilan bog‘liq holda o‘rganildi, bu esa kriminal badiiy diskursda jinoyat va adolatning o‘zaro bog‘langan konseptosfera sifatida namoyon bo‘lishini aniqlash imkonini taqdim etdi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results). Kriminal badiiy diskursda “jinoyat” va “adolat” konseptlari syujetning semantik markazini tashkil etib, voqealar rivojini belgilovchi asosiy konseptual tayanch sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, Tohir Malikning 5 qismli “Shaytanat” romanlari turkumi hamda Agata Kristining detektiv asarlari (masalan, “Cards on the Table”, “Dumb Witness”) umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, har ikki yozuvchi ijodida jinoyat hodisasi syujetni harakatga keltiruvchi boshlang‘ich nuqta vazifasini bajaradi, adolat esa voqealarning yakuniy semantik yechimi sifatida tasvirlanadi. Biroq ushbu ikki yozuvchi diskursida mazkur konseptlarning lingvopragmatik talqini bir xil emas. “Shaytanat”da jinoyat ko‘proq ijtimoiy muhit, kuchlar to‘qnashuvi va manfaatlar kurashi bilan bog‘liq holda berilsa, A.Kristi asarlarida jinoyat mantiqiy sir, intellektual muammo va tekshiruv jarayonining markazida turadi. Shu sababli “jinoyat” konsepti birinchi holatda ijtimoiy-psixologik, ikkinchi holatda esa detektiv-mantiqiy diskurs orqali ifodalanadi.

“Shaytanat” romanlarida jinoyat, ko‘pincha, zo‘ravonlik, tahdid, xiyonat, yashirin kelishuv, hokimiyat uchun kurash kabi semantik komponentlar bilan birga keladi. Matnda jinoyat olamiga oid qahramonlar nutqida qo‘rqitish, buyruq berish, o‘zini oqlash, aybni boshqaga yuklash kabi nutqiy strategiyalar faol qo‘llanadi. Masalan, jinoyat olamiga mansub qahramonlar nutqida kuch ishlatish yoki majburlashni oqlovchi mazmundagi fikrlar tez-tez uchraydi, bu esa jinoyat konseptining pragmatik jihatdan normal holat sifatida ko‘rsatilishiga olib keladi. Ayrim epizodlarda qahramonlar sodir etilgan jinoyatni yashash qonuni yoki hayot majburiyati sifatida izohlashga urinadi. Bunday nutqiy vaziyatlarda jinoyat salbiy baholashdan ko‘ra zarurat sifatida talqin qilinadi, bu esa konseptning diskursdagi baholash yuklamasi har doim bir xil emasligini ko‘rsatadi. Shu jihatdan “Shaytanat” diskursida “jinoyat” konsepti konfliktni kuchaytiruvchi, ijtimoiy keskinlikni ko‘rsatuvchi va qahramon xarakterini ochuvchi lingvopragmatik vosita sifatida ishlatiladi.

A.Kristi asarlarida esa jinoyat ko‘proq sirli hodisa sifatida berilib, uning asosiy vazifasi tergov jarayonini yuzaga keltirishdan iborat bo‘ladi. Detektiv diskursda qahramonlar nutqida gumon, dalil, tekshiruv, haqiqat, iz, sir kabi birliklar faol qo‘llanadi. Bunday birliklar jinoyatni zo‘ravonlik hodisasi sifatida emas, balki yechilishi kerak bo‘lgan muammo sifatida ko‘rsatadi. Mazkur asarlarda tergov jarayonida qahramonlar o‘z fikrini ehtiyotkorlik bilan bildiradi, taxmin qiladi, inkor etadi yoki dalil keltiradi, bu esa diskursda mantiqiy-analitik nutq uslubining ustunligini ko‘rsatadi. Shu sababli bu asarlarda “jinoyat” konsepti ko‘proq savol, gumon va izlanish bilan bog‘liq semantik maydon orqali ifodalanadi. Lingvopragmatik jihatdan bunday qo‘llanish o‘quvchini voqeani baholash jarayoniga jalb qiladi va adolatning tiklanishini intellektual yechim sifatida qabul qilishga tayyorlaydi.

“Adolat” konsepti har ikki yozuvchi diskursida jinoyatga nisbatan qarama-qarshi semantik maydonni tashkil etadi, ammo uning ifodalanish shakli turlicha. “Shaytanat”da adolat, ko‘pincha, rasmiy qonun bilan emas, balki hayotiy jazoga tenglashtiriladi. Ayrim qahramonlar jazoni sud emas, balki taqdir, qasos yoki kuchliroq shaxs tomonidan berilishini adolat deb qabul qiladi. Bunday epizodlarda hukm, jazo, qasos, javob berish kabi birliklar ijobiy yoki neytral ohangda qo‘llanib, adolatning axloqiy talqinini yuzaga keltiradi. Shu sababli mazkur diskursda “adolat” konsepti, ko‘p hollarda, shaxsiy qaror, ichki baho yoki ijtimoiy muvozanatni tiklash bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

A.Kristi asarlarida esa “adolat” konsepti ko‘proq haqiqatni aniqlash va aybni isbotlash orqali ifodalanadi. Detektiv qahramon nutqida haqiqat, isbot, hukm, aybdor, ochildi kabi birliklar faol qo‘llanadi va ular syujet yakunida semantik markazga aylanadi. Jinoyat ochilganidan keyin diskurs ohangi ham o‘zgaradi: keskinlik kamayadi, nutq aniq va qat’iy tus oladi. Bu holat “adolat” konseptining pragmatik vazifasi konfliktni tugatish va tartibni tiklashdan iborat ekanini ko‘rsatadi. Detektiv diskursda adolat qonuniy hukm bilan bog‘lansa, ijtimoiy-kriminal diskursda u ko‘proq hayotiy muvozanatni tiklash shaklida talqin qilinadi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatdiki, “jinoyat” va “adolat” konseptlari har ikki yozuvchi asarlarida o‘zaro bog‘langan konseptosferalarni hosil qiladi. Jinoyat diskursda keskinlik, xavf va ziddiyatni yuzaga keltiruvchi birlik sifatida namoyon bo‘lsa, adolat ushbu ziddiyatni bartaraf etuvchi yakuniy baholash kategoriyasi sifatida ishlaydi. Lingvopragmatik jihatdan jinoyat ko‘proq ayblash, yashirish, tahdid qilish, o‘zini oqlash kabi nutqiy strategiyalar orqali ifodalanadi, adolat esa aniqlash, isbotlash, hukm chiqarish va tiklash strategiyalari bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Shu tariqa, kriminal badiiy diskursda “jinoyat” va “adolat” konseptosferalarining o‘zaro munosabati matnning umumiy ma’nosini belgilovchi asosiy semantik-pragmatik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari kriminal badiiy diskursda "jinoyat" va "adolat" konseptlari matnning semantik hamda pragmatik tuzilishini belgilovchi asosiy konseptual markaz ekanini ko'rsatdi. T.Malik va A.Kristi asarlari tahlili jinoyat diskursda konfliktni yuzaga kel-tiruvchi birlik sifatida, adolat esa ushbu konfliktni yakunlovchi va baholovchi konsept sifatida namoyon bo'lishini tasdiqladi. Lingvopragmatik jihatdan jinoyat ayblash, yashirish, tahdid, shubha kabi nutqiy strategiyalar orqali ifodalansa, adolat aniqlash, isbotlash, hukm chiqarish hamda muvozanatni tiklash bilan bog'liq birliklar orqali yuzaga chiqishi aniqlandi. Shu bilan birga, turli adabiy an'analarda ushbu konseptlarning talqini farqlanishi kuzatildi: ijtimoiy-kriminal diskursda adolat ko'proq axloqiy yoki hayotiy baho bilan bog'lansa, detektiv diskursda u haqiqatni aniqlash va qonuniy hukm chiqarish bilan ifodalanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda kriminal badiiy diskursni kengroq materiallar asosida o'rganish, turli tillar va adabiy maktablar kesimida "jinoyat" va "adolat" konseptosferalarining qiyosiy tahlilini olib borish hamda lingvopragmatik vositalarning korpus asosida tadqiq etilishi ushbu yo'nalish bo'yicha yanada aniq ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Biber D., Conrad S., Reppen R. Corpus Linguistics: Investigating Language Structure and Use. Cambridge: Cambridge University Press, 1998, 312 p.

(2). Coulthard M., Johnson A., Wright D. An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence. London, Routledge, 2017, 270 p.

(3). Fludernik M. An Introduction to Narratology. London, Routledge, 2009, 200 p.

(4). Herman D. Story Logic: Problems and Possibilities of Narrative. Lincoln, University of Nebraska Press, 2004, 500 p.

(5). Huang Y. Pragmatics. Oxford, Oxford University Press, 2014, 464 p.

(6). Locher M.A., Jucker A.H. The Pragmatics of Fiction: Literature, Stage and Screen Discourse. UK, Edinburgh University Press, 2021, 275 p.

(7). Semino E. Language and World Creation in Poems and Other Texts. London, Routledge, 2014, 288 p.

(8). Simpson P. Stylistics: A Resource Book for Students. 3rd ed. London, Routledge, 2025, 338 p.

(9). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York, Oxford University Press, 1997, 317 p.

Uralova Oysuluv Poyan qizi (Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti "Xorijiy til va adabiyoti" kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent; E-mail: oysuluv.tersu.2019@gmail.ru)

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA ZOOKOMPONENTLI MAQOLLARNING SEMANTIK VA STRUKTUR XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi zookomponentli maqollarning semantik va struktur xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida hayvon nomlari orqali ifodalangan milliy dunyoqarash, madaniy qadriyatlar va obrazli tafakkur o'rganiladi. Shuningdek, maqollarda qo'llaniladigan hayvon obrazlarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *maqol, zookomponent, semantika, struktura, lingvokulturologiya.*

Уралова Ойсулув Поян кизи (Заведующая кафедрой иностранных языков и литературы, Термезский университет экономики и сервиса, доктор филологических наук (DSc), доцент; E-mail: oysuluv.tersu.2019@gmail.ru)

СЕМАНТИЧЕСКИЕ И СТРУКТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЗООКОМПОНЕНТНЫХ ПОСЛОВИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. *В данной статье представлен сравнительный анализ семантических и структурных особенностей зоокомпонентных пословиц в английском и узбекском языках. Исследование рассматривает национальное мировоззрение, культурные ценности и образное мышление, выраженные через названия животных. Также выявляются сходства и различия в использовании животных образов в пословицах.*

Ключевые слова: *пословица, зоокомпонент, семантика, структура, лингвокультурология.*

Uralova Oysuluv Poyan qizi (Head of the Department of Foreign Languages and Literature, Termez University of Economics and Service, Doctor of Philological Sciences (DSc), Associate Professor; E-mail: oysuluv.tersu.2019@gmail.ru)

SEMANTIC AND STRUCTURAL FEATURES OF ZOO-COMPONENT PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation. *This article presents a comparative analysis of the semantic and structural features of zoocomponent proverbs in the English and Uzbek languages. The study examines national worldview, cultural values, and figurative thinking expressed through animal names. It also identifies the similarities and differences in the use of animal imagery in proverbs.*